

“LOLAZOR” ROMANIDA SHO‘RO DAVRI VA INSON FOJEASI TALQINI

**Jumanazarova Charos**

*Guliston davlat pedagogika instituti*

*Tillarni o‘qitish fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti*

*yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romanida sho‘ro davri tanazzuli yillarining ijtimoiy manzarasi va insoniylik masalalari tahlil qilinadi. Muallifning asar bosh qahramoni Nazar Yaxshiboyev obrazi orqali davrining yolg‘on g‘oyasi hamda tizimning inson taqdiridagi ayanchli ta‘sirini yoritib bergan. Maqolada asarning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va badiiy ifoda usullari ochiq yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Murod Muhammad Do‘st, “Lolazor”, Nazar Yaxshiboyev, sho‘ro davri tanazzuli, inson fojeasi, ziyoli obrazi, yolg‘on g‘oya, inson taqdiridagi ayanchli g‘oyalar.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется социальная панорама лет упадка советской эпохи и вопросы человечности в романе Мурада Мухаммада Доста “Лолазор” (“Тюльпановое поле”). Через образ главного героя Назара Яхшибаева автор раскрывает лживую идеологию того времени и трагическое влияние системы на судьбу человека. В статье подробно освещаются место произведения в узбекской литературе и методы художественного выражения.*

**Ключевые слова:** *Мурад Мухаммад Дост, “Лолазор”, Назар Яхшибаев, упадок советской эпохи, трагедия человека, образ интеллигента, ложная идея, губительные идеи в судьбе человека.*

**Abstract:** *This article analyzes the social landscape of the declining years of the Soviet era and the issues of humanity in Murad Muhammad Dost's novel “Lolazor” (The Tulip Field). Through the image of the protagonist Nazar Yaxshiboyev, the author highlights the false ideology of the period and the tragic impact of the system on human destiny. The article provides a clear insight into the novel's role in Uzbek literature and its artistic modes of expression.*

**Keywords:** *Murad Muhammad Dost, “Lolazor”, Nazar Yaxshiboyev, Soviet era decline, human tragedy, the image of an intellectual, false ideology, tragic ideas in human destiny.*

O‘zbek adabiyotining sara namunalaridan biri hisoblangan “Lolazor” romani yaratilgan davrining haqiqiy badiiy ifoda namunasi hisoblanadi. Yozuvchi bu asarda shunchaki siyosiy tuzumni tanqid qilmagan, balki o‘sha tuzumning ichida yashab, o‘zligini yo‘qotgan insonning ichki fojiasini mohirona tasvirlagan. 80-yillar oxiri o‘zbek nasrida “Lolazor” singari asarlar paydo bo‘lishi milliy o‘zlikni anglash va sho‘ro tuzumining chirigan ustunlarini fosh etishga xizmat qildi [4, 210]. Roman 1980-yillar sovet jamiyatining murakkab va ziddiyatli manzaralarini aks ettiradi. Unda hukmron mafkuraning inson taqdiriga ko‘rsatgan salbiy ta‘siri, shaxsning aldanishi hamda ichki ma‘naviy iztiroblari chuqur ochib beriladi. Asarda

yolg'on va soxta g'oyalarga tayangan davlat tizimining asl mohiyati bosh qahramon – Nazar Yaxshiboyev taqdiri misolida ochib beriladi. Romanda voqelikka kinoyaviy munosabat sezilib turadi, bu esa asarning badiiy va g'oyaviy teranligini yanada oshiradi. Asarda tasvirlangan sho'ro davri - bu katta yolg'onlar ustida qurilgan jamiyat hisoblanadi. "Odamzodning fe'li qiziq: o'zi ko'rgan haqiqatidan ko'ra, birovning og'zidan chiqqan yolg'onga ko'proq ishonadi. Chunki yolg'on har doim jozibali, haqiqat esa — yalang'och va beshafqat" [1,148]. Muallif "Lolazor" so'zi orqali tashqi tarafdin qaraganda go'zal va gullab-yashnayotgan, biroq ich-ichidan qon va azobga, ya'ni qizil rangga bo'yalgan, yolg'onchi bir dunyoni mahorat bilan tasvirlaydi. Bu roman shunchaki siyosiy asar emas, u insonning o'z vijdoniga qarshi borishi qanchalik og'ir fojialarga olib kelishini ko'rsatuvchi ma'naviy ogohlantirishdir [7, <https://kh-davron.uz>].

Roman bosh qahramoni Nazar Yaxshiboyev tizimning bir bo'laki hisoblanadi. U Markaziy qo'mitada ishlaydi, imkoniyatlarga ega, biroq u baxtlimi? Asarda inson fojeasi shu nuqtada namoyon bo'ladi. Romanning bosh qahramoni hisoblangan Nazar Yaxshiboyev orqali asarda yolg'on va soxta g'oyalarga asoslangan davlat tizimining asl mohiyatini ochib bergan. Asar 1980-yillar sovet jamiyatining murakkab hamda ziddiyatli qarashlarini aks ettirgan. S.Quronov o'z maqolasida "Darhaqiqat, Yaxshiboyev yozuvchi uchun olamni ko'rish va baholash vositasi, lekin, bizningcha, bosh maqsad emas. Ya'ni adib o'zining inson konsepsiyasida tuzumning "yaratuvchilari" – hukmron elita, hokimiyatga xos tafakkumi anglashni pirovard maqsad qilib oladi [2]. Yaxshiboyev esa bu jarayonda muhim qurol, qahramonning o'z ta'biri bilan aytganda Oshno uchun "ilova" xolos", deya aytib o'tgan. Haqiqatdan ham Yaxshiboyev tizimning bir bo'laki hisoblanadi. Ammo Yaxshiboyevning ichki kechinmalarini va ichki dunyosini ochib beruvchi Oshno ya'ni (Xorun Kalonov) personaji. Xorun Yaxshiboyevning yaqin do'sti hamda maslakdoshi hisoblanadi. Xorun Kalonqul bo'yoqchini o'g'li bo'ladi. Yozuvchi asarda hayot turli ziddiyatlarga boyligini ko'rsatadi. Ushbu romanda Yaxshiboyev-Shoymardonov hamda Yaxshiboyev-Oshno munosabatlarida ochiq ko'rsatilgan. Ba'zan ishlab yurgan hamkasbing, o'rtog'im deb bilgan insoning, ancha yillik tanishing, tanimagan begona kishilar bilan ham ziddiyatlarga borish mumkin. Shunday payt keladi o'zimiz bilan o'zimiz kurashishimizga to'g'ri keladi. "Lolazor" romani huddi shunday ziddiyatlar va ichki to'qnashuvlarga boy asar sanaladi. Oshno va Yaxshiboyev o'rtasidagi munosabatda soxtalik bormi? Ammo ular yoshlikdan birga katta bo'lishgan yaqin do'stlar. Axir Yaxshiboyevning iqrori bor: "Ha, kimsan, Yaxshiboyev, o'rtoq Yaxshiboyev, Oshnoning oshnosi!...". Bular ushbu oshnolikni omonat ekanligini bilmaydi. Yana bir obraz Nazar Yaxshiboyevning shaxsiy hayotini hamda oilaviy munosabatlarini ochishda yordam bergan personaj, uning rafiqasi – Oliya hisoblanadi. Romandagi Muhsina asosiy ayol obrazlaridan. Muallif jamiyatdagi ayol psixologiyasini shu qahramon bilan yoritgan. Biroq romanda hech qaysi qahramon Nazar Yaxshiboyevga o'zligini anglash darajasiga kela olmaydi. Yaxshiboyev yolg'on siyosatni boshqalardan ko'ra yaxshiroq anglaydi. Oddiy cho'pondan tortib katta rahbar hayotigacha kirib boradi hamda, davrning fojeasini butunligicha ko'radi. Yaxshiboyev hayoti oxirlab, o'tmishiga nazar

solarkan, faqat ro'yoni ko'radi. "Bulduruqda bog' qilolmadim. Armonki, qolgan hammasini bir tiyin qiladi: obro'yimni ham, unvonimni ham, boring-ki, butun xonumonimni!", deydi u. Shu tufayli ham dunyoga kelib, yolg'on aralashmagan, qo'l bilan ushlab mumkin bo'lgan ish ko'nglidan o'tadi. U qishlog'ida bog' yaratadi. Ushbu bog' Yaxshiboyevning dunyosidagi yagona haqiqati va yupanchi hisoblanadi. Romanda Yaxshiboyevning aksi bo'lib gavdalangan Oshno obrazi. Oshno haqiqatdan ko'ra yolg'on siyosat tarafdori. Qolaversa, Qurbonoy va Hotam Sho'ro obrazlari qiyosida yorqin ochib beriladi. Muallif Hotam Sho'ro personajida rostgo'ylik, halollik, fidokorlik timsollarini yaratishga, hamda o'z davrining qahramonini gavdalantirishga urunadi. Biroq bunday insonlar haqiqat tomonida turgani uchun hayotda yaxshilik ko'rmasligini ta'kidlaydi.

Muallif romanda inson konsepsiyasi markazi qilib "yolg'on ichida yashayotgan" insonlarni keltirarkan, ularning ruhiy evrilishlarini, taqdiri va o'y-xayollari hamda, Sho'ro tuzumi tabiatidan kelib chiqqan holda yoritadi. Aslini olganda "Lolazor" - bu manzil emas, balki chalg'ituvchi bir sarob hisoblanadi [<https://ziyouz.uz>]. Nazar Yaxshiboyev esa xuddi shu sarobda o'zligini qidirgan, biroq topdim degani faqat xazon bo'lgan bir qahramondir. Asl hayot qirmizi lolalar bilan yasatilgan qalbaki dalalarda emas, insonning o'z vijdoniga qanchalik sodiqligidir. Ushbu roman bizni bugungi kunimizga "Yaxshiboyev nigohi" bilan qarashga va xatolardan xulosa qilishga targ'ib qiladi. Roman inson erkinligi ijtimoiy tuzum bilan to'qnashuvini ko'rsatgan. Yuqorida aytib o'tganimdek, muallif Nazar Yaxshiboyev timsolida tuzum mahkumlarining ayanchli hamda haqqoniy qiyofasini paydo qiladi. Roman yakunida qahramonning yolg'izligi-bu faqatgina shaxsningina emas, balki vijdon hamda haqiqatdan voz kechilganligi jamiyat inqirozidir. Nazar Yaxshiboyev hamda Oshno obrazlari bir tizimning ikki xil talofatidir. Oshno romanning moddiy qiyofasi hisoblanadi. Bu obraz "Lolazor" deb ataladigan soxta dunyoni barpo qilishda qatnashadi va bu dunyoning qonunlariga tayanadi. O'zlikni rad etish uning asosiy fojeasi hisoblanadi. Yaxshiboyev esa "Lolazor"ning chirkin ahvolini, ushbu "Lolazor"ning qizil gullari aldovlini bilib, ko'rib tursa ham, uni tark etmaydi. Yaxshiboyevning maqsadi bilish, ko'rish va hal qilish. Azobi esa, hech nima qila olmaslikdir. Murod Muhammad Do'st nasrida so'z o'yinlari va kinoya yetakchi o'rin tutadi. Uning "Lolazor" romani o'zbek romanchiligida psixologik tahlilning yangi bosqichini boshlab berdi [3,165].

Xulosa o'rnida Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani shunchaki o'tgan asrning siyosiy manzarasi emas, ammo inson ruhiyatining mustabid tuzum iskanjasidagi fojeaviy talqini hisoblanadi.

Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani o'zbek romanchiligi tahlilini yangi bosqichga olib chiqadi. Yaxshiboyev hamda Oshno obrazlarining murakkab xarakterlari orqali yozuvchi inson tabiatining qorong'u va yorug' jihatlarini ustalik bilan ochib bergan. Muallif Nazar Yaxshiboyev orqali sho'ro ziyolisining ichki inqirozini ifodalab bergan. Yaxshiboyev tizimning yolg'onlarga asoslanganligini angelaydi, ammo uning bir bo'lagi bo'lishga majbur bo'ladi. Uning fojeasi ham aynan shunda, bilgan holda bo'ysunishida. U "Lolazor" ning qanchalar soxtaligini ko'rib turgan, biroq uni o'zgartirishga kuchi yetmagan,

shu sababli o'zligini ichki istehzo hamda ruhsizlikka qurbon qilgan inson ramzidir [5, Jadid.uz portali]. Oshno obrazi esa tizim tomonidan chetga surilishi, yakunda esa tanazzulga yuz tutishi hamda sho'ro davrida haqiqatning o'rinsizligini ko'rsatadi. Oshno fojeasi shundan iboratki, u yashayotgan jamiyat haqiqatni qabul qilmaydi. Oshno va Nazar o'rtasidagi suhbatlari aslida inson vijdoni bilan ijtimoiy majburiyat o'rtasidagi bahs hisoblanadi. Nazarning vijdonini uyg'otuvchi "ko'zgu" vazifasini bajaradi. Biroq sho'ro davrining fajeaviy ahamiyati shundaki, vijdoni uyg'onganida ham, tizim uni bo'g'ib tashlaydi. Nazarning ma'naviy yolg'izligi hamda Oshnoning halokati – sho'ro davrining insonni jismonan, balki ma'naviy jihatdan yo'q qilganini tasdiqlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murod Muhammad Do'st. Lolazor (Roman). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. Quronov, S. D. (2019). "Lolazor" romanida inson konsepsiyasi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. – Toshkent, 2019. -№4.
3. Mirvaliyev, S. (1993). O'zbek adiblari. – Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Karimov, N. (2002). XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari.
5. Ziyouz.uz portali. Murod Muhammad Do'st (1949). [elektron resurs]. URL: <https://ziyouz.uz>
6. Jadid.uz. "Lolazor" romanidagi ramzlar va iqtiboslar tahlili.
7. Khurshid Davron kuutubxonasi. Murod Muhammad Do'st va "Lolazor" haqida mulohazalar. [Elektron resurs]. URL: <https://kh-davron.uz>